

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№7 (3) 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I7Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li*
AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR 9-15
- Зоҳидов Қобилжон Тоиржонович*
ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ 16-20
- Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich*
SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOIIY TA'MINOT
SIYOSATI 21-26
- Хайназаров Баҳромжон Бахтиёрович*
КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ
ТИЗИМИНИНГ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН
(XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ) 27-32
- Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли*
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРҒИБОТИДА
ТУТГАН ЎРНИ 33-41
- Bobodustov Bobur Mirzaboyevich*
ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA
IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI 42-47
- Саидбобоева Гулзора Нематжонова*
XX АСРНИНГ 30–50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ
ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА 48-55

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Казаков Олим Сабирович*
ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ 56-60
- Utkirov Abbos Meyliyevich*
CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 61-67
- Umronov Eldorbek Sodirovich*
TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI 68-76
- Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадинович*
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО
ТУРИЗМА 77-82
- Xolmurotov Fozil Saribayevich*
MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK
MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH 83-91
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 92-100

Гойипназаров Санжар Баходирович
СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРИЙ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕХНАТ БОЗОРИДАГИ
ЎЗГАРИШЛАР101-110

Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li
BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI111-119

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Юлдашев Фаррух Абдурахманович
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭХТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙҒУНЛИК
ХУСУСИЯТЛАРИ120-126

Тожибоев Сарвар Пулатжон ўғли
ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ
АСОСЛАРИ127-132

Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li
YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G'OYAVIY MAFKURAGA
ASOSLARI133-137

Abdullayev Temur Bobir o'g'li
TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI138-143

Islamov Kamol Tashkulovich
UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVIY YONDASHUVLAR
NISBATI 144-150

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI151-160

Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li
AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING
QO'LLANILISHI161-167

Мухамедова Феруза Баходир кизи
ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
А. КИМА.....168-174

Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich
TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI175-180

Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda
FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION
METODLARINING QO'LLANILISHI181-185

Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi
MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK
TADQIQI186-190

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

- Жавлиев Нурали Баходирович*
МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЗМУН-МОҲИЯТИ191-195
- Узакова Гўзал Шариповна*
БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН
ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ).....196-204
- Usmanov Alisher Tolmasovich*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI
YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR205-213
- Авезова Элеонора Парахатовна*
РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ
СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН214-218
- Мукумов Бобур Мелибой угли*
ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ
АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ
.....219-224
- Туракулова Назира Абдишукуровна*
СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ:
ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН225-232

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

- Хўжамкелдиев Гафур Султон ўгли*
СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ233-237
- Aziz Hasanovich Rajabiy*
BO'LAJAK VOKAL O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH238-242
- Malikova Sevar Samatovna*
BO'LAJAK XOR RAHVARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH243-246
- Васильченко Ольга Анатольевна*
ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ247-251
- Хојитуродова Маһлиёхон Кенжавоу қизи, Inomov Faxriddin O'rmonjonovich*
AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS
AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES252-257
- Асадуллаева Наргиза*
БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ
МУСТАҲҚАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ
РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ258-265
- Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi*
BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI266-272

<i>O'ktamova Navruza Botir qizi</i> BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIIY MATNLAR MISOLIDA)	273-277
<i>Humonjonov Shoxzodbek Dilshodjon ўғли</i> ОЛИЙ ТЕХНИКА ТАЪЛИМИДА МЕХНАТ МУҲОФАЗАСИ ВА ТЕХНИКА ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЭЛЕКТРОН МЕТОДИК АСОСЛАРИНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ	278-287
<i>Xuramov Ilxom Panjiyevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH	288-292
<i>Azizbek Umarov</i> MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA	293-299
<i>Saidova Zilola Gadoymurodovna</i> TA'LIM INTEGRATSIYASINING AYRIM MASALALARI	300-307
<i>Raxmonova Gulrux Ulashevna</i> O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	308-312
<i>Boynazarova Sayyora Ruzikulovna</i> BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	313-317
<i>Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi</i> MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI	318-323
<i>Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi</i> MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI	324-329
<i>Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich</i> THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE	330-349

07.00.00 – Тарих фанлари

Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich

O'zbekiston FA Tarix instituti tayanch doktoranti

Email: misha.smb.97@gmail.com

SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOY TA'MINOT SIYOSATI

Annotatsiya. Ikkinchi jahon urushining dastlabki kunlaridanoq Qoraqalpog'iston ASSR xalqi front va front orqasida faol ishtirok etib, qahramonlarcha jang qildilar. Urushdan keyingi davrlarda jang harakatlarida jarohatlangan nogironlarni ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish uchun ko'plab muhim ishlar amalga oshirildi. Mazkur maqolada jang maydonlarida qahramonlarcha kurashib, o'z jonini ayamagan mard, jasur qoraqalpog'istonlik askarlarning oila a'zolariga ko'rsatilgan g'amxo'rlik, ularning moddiy ta'minotiga e'tibor, pensiya va nafaqalar bilan ta'minlash, ishga joylashtirish, muhtoj oilalar uchun sanoat mollari ajratilib, uylarini remont qilish, o'tin-ko'mir berish va boshqa shu kabi holatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qoraqalpog'iston ASSR, front, pensiya, Ijtimoiy ta'minot vazirligi, protez.

Siddikov Mirshod Bakhtiyorovich

Doctoral student of the Institute of History of
the Academy of Sciences of Uzbekistan.

THE SOCIAL SECURITY POLICY OF THE SOVIET AUTHORITY IN ASSR OF KARAKALPAKISTAN

Abstract. The people of the Karakalpakstan ASSR fought heroically at the front and acted selflessly rear the front from the first days of World War II. In the post-war period, many important works were held for the social protection of disabled people who were seriously injured in the battlefields. The article analyses the care shown to the family members of the brave soldiers of Karakalpakstan who fought heroically on the battlefields and devoted their lives, supporting them financially, provision of pensions and allowances, their employment, allocating industrial goods for needy families, repairing their houses, providing firewood and other facilities.

Key words: Karakalpak ASSR, front, pension, social security, prosthesis.

Сиддиков Миршод Бахтиёрович

Докторант Института истории Академии наук Узбекистана.

ПОЛИТИКА СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В ВЕК КАРАКАЛПАКСТАНА

Аннотация. С первых дней Великой Отечественной войны народ Каракалпакской АССР принимал активное участие на фронте и в тылу, героически сражался. В послевоенный период было проведено много важных работ по социальной защите инвалидов, пострадавших в боевых действиях. В данной статье забота, проявленная к членам семей храбрых и отважных воинов из Каракалпакской, героически сражавшихся на полях сражений и не пощадивших своей жизни, внимание к их материальному

обеспечению, обеспечению пенсиями и пособиями, трудовому населению, выделению промышленных товаров для малообеспеченных семей, ремонт их домов, обеспечение дровами и другие подобные случаи.

Ключевые слова: Каракалпакская АССР, фронт, пенсия, социальное обеспечение, протезы.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N03>

Misli ko'rilmagan shiddatli urush 1418 kun davom etib, xalqlarning hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Urushning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston bilan bir qatorda Qoraqalpog'iston ASSR xalqi ham front, ham front orqasida faol ishtirok etib, qahramonlarcha jang qildilar.

Ikkinchi jahon urushida Qoraqalpog'istondan frontga hammasi bo'lib, 61618 kishi safarbar qilindi va nemis – fashist qo'shinlariga qarshi jangovar harakatlarda ishtirok etdi. Frontga safarbar etilgan Qoraqalpog'iston o'g'lonlarining qahramonlik jasoratlari yuksak baholanib, 20 nafar jangchi ko'rsatgan qahramonliklari uchun "Sovet Ittifoqi Qahramoni", 6 kishi "Shuhrat" ordenining uchala darajasi bilan, shuningdek, 20 mingga yaqin jangchi turli orden va medallar bilan mukofotlandi [4; 499-b]. Urush davrida yarim millionli Qoraqalpog'iston xalqi fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga munosib hissa qo'shdi. Jang maydonlarida minglab qahramonlar yetishib chiqdi. Ularning ko'rsatgan jasoratlari tarix sahifalaridan joy oldi. Masalan, shunday jangchilardan biri Tojimurod Boltamurodovdir. U Ikkinchi jahon urushining birinchi kunlaridan Moskva, Stalingrad, Leningrad yonida bo'lgan janglarda faol qatnashdi. Ayniqsa Kursk yarim doirasida bo'lgan qattiq janglarda mahorat ko'rsatgan. Uning ukasi Ajimurod ham jang maydonlarida nemis - fashist bosqinchilarga qarshi janglarda ko'rsatgan mardlik va jasoratlari uchun 2 marta "Qizil Bayroq" ordeni bilan mukofotlangan [1]. Jang maydonlarida qahramonlarcha kurashib, o'z jonini ayamagan mard, jasur qoraqalpog'istonlik askarlarning oila a'zolariga doimiy ravishda g'amxo'rlik qilib kelingan. Ularning moddiy ta'minotiga e'tibor berilgan. Ularni pensiya va nafaqalar bilan ta'minlash, ishga joylashtirish va shu kabi boshqa ijtimoiy holatlarga e'tibor bilan yondashilgan. Shuningdek, respublikaning barcha kolxozlarida o'zaro yordam fondlari ham tashkil qilinib, Qoraqalpog'iston mehnatkashlari tomonidan yordam fondiga yig'ilgan mablag'lar harbiy xizmatchilarning oila a'zolarining moddiy ta'minoti uchun ajratilgan.

Kassa mablag'laridan, birinchi navbatda, harbiy xizmatchilar va urush nogironlarining oilalariga yordam ko'rsatish uchun foydalanilgan. Qo'llaridan kelgancha oziq-ovqat mahsulotlari, kiyimlar, o'tin, chorva mollari bilan yordam berilgan. Masalan, ular uchun urush yillarida 33 ming 397 ta uy qurib berildi va ta'mirlandi, 30 million so'm pul miqdorida yordam berildi [4; 499-b]. Urushdan keyingi yillarda ham bu yordam turlarining soni kengaydi. Jumladan, 1947-yil holatiga ko'ra, halok bo'lgan askarlar va harbiy xizmatchilarning oilalariga quyidagi yordamlar ham ko'rsatilgan: 1142 ta oilaga yer uchastkalar berildi, 10395 ta oilaga 24610 dona turli xil kiyim-kechaklar, 2789 kishiga 5240 juft turli xil poyabzallar, 61 oilaga 61 bosh yirik va mayda chorva mollar, 535 oilaning uylari ta'mirlab berildi. Shuningdek, 234 kishi kvartiralar bilan ta'minlandi, 50 kishiga qurilish uchun 213 000 rubl miqdorda kreditlar berildi. Bundan tashqari, Beknazarov Bibining oilasiga moddiy yordam sifatida 200 rubl miqdorda pul, 11 metr material, 2 dona sharf, 2 dona ko'ylak, 1 kg shakar, 100 gr choy, 1 juft tufli berilgan. Abduraimova Madinaning oilasiga esa 9 metr material, 400 gr shakar, 50 gr choy, 2 juft tufli, 4 kub/bm o'tin berilgan[5; 5-b]. Quyidagi buyumlar oz tuyulsada, shuni yoddan chiqarmaslik

zarurki, urushdan keyingi o'gir sharoitlarida bir burda non oltinga teng bo'lgan zamonda, shu kabi yordamlarning ko'rsatilishi, harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning bir belgisidir.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston ASSR Ijtimoiy ta'minot vazirligi 1947-yilda o'zaro manfaatli jamg'armalardan quyidagi yordamni ko'rsatdi [5; 7-8-b]:

	Shaxslar soni	Ajratilgan pul	Mahsulot
Kolxozchilar uchun qariyalar uylarini saqlash va tashkil etish	29	4500	510
Nogironlik va qarilik uchun yordam	135	16548	140
Vaqtinchalik nogironlar uchun yordam	213	25314	640
Yetim bolalarni boqish	38	4638	130
Vaqtinchalik muhtoj bo'lgan ota-onalarning farzandlariga yordam	49	4193	-
Qizil armiyaga chaqirilgan oilalarga yordam	291	33591	1790
Kassa a'zolari kurortlarga yuborish	6	3122	-
Nogironlar uchun protezlash	11	2550	60
Ayollarga tug'ruqqa yordam	103	6549	-

Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarning bolalariga ham g'amxo'rlik qilinib, ularga keng imtiyozlar berilgan. Masalan, harbiy xizmatchilarning bolalaridan 534 kishi bolalar muassasalarga joylashtirildi. Birgina Nukus shahar kengashi tomonidan urush nogironlarining farzandlari va halok bo'lgan askarlarning oilalarini pioner lagerlari va sog'lomlashtirish korxonalarida saqlashga 33,7 ming rubl sarflandi. Bundan tashqari, 62 kishi maktab, texnikum va oliy o'quv yurtlari uchun to'lovlardan ozod etildi. Shu bilan birga, ijtimoiy ta'minot organlari tomonidan ko'chada qolgan bolalarni aniqlash, ularni mehribonlik uylariga joylashtirish va pensiya tayinlash borasida ishlar olib borildi. Misol uchun, Kuybishev nomidagi kolxozda yashovchi Abdujalilov Mambetning ota-onasi vafot etgan va qarovsiz qolganligi uchun bolalar uyiga joylashtirildi. Shuningdek, otasi frontda halok bo'lgan Ayat Abdullayevga 50 rubl pensiya tayinlandi. O'rungul Bekturganovaga (1938-yilda tug'ilgan) ota-onasi vafot etganligi va ukasi esa qizil armiya safida halok bo'lganligi uchun oyiga 160 rubl miqdorda nafaqa tayinlangan [5; 2-b].

1947-yil 4-iyulda Qoraqalpog'iston ASSR Ministrlar Kengashi [3] ijtimoiy ta'minot organlariga pensiya iqtisodiyotini yaxshilashda amaliy yordam ko'rsatish, Vatan urushi nogironlarini ishga joylashtirishda barcha turdagi moliyaviy va maishiy yordam ko'rsatish to'g'risida maxsus qaror qabul qildi [5; 1-b]. Qoraqalpoq ASSR bo'yicha nafaqa va pensiya oluvchilarning umumiy soni 1948-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 9537 kishini tashkil etgan. 1947-yil uchun to'langan nafaqa va pensiyalar miqdori esa 21490406 rublni tashkil qilib, quyidagi jadvalda to'lov miqdorlari berilgan[5; 8-b].

1-jadval

Shu jumladan	Miqdori	Puli
Ishchi-xodimlarning oilalari	1759	8812833 rubl
Halok bo'lgan xodimlarning oilalari	3334	5597485 rubl

Vatan urushi nogironlari	3589	5408777 rubl
Keksa yoshdagi nogiron ishchilar	855	1671311 rubl

Jadvalda ko'rsatilganidek, harbiy xizmatchilar oilalari, urush nogironlari bilan bir qatorda, ishchi-xodimlarning oilalari va keksa yoshdagi nogiron ishchilarning ham moddiy ta'minotiga mablag'lar ajratilgan. Ushbu mablag'lar hududlar kesimida quyidagicha taqsimlangan.

2-jadval

Tumanlarning nomi	Imtiyozlar bo'yicha	Pensiyalar bo'yicha	jami
Nukus	13719,50	27094,56	40814,06
Qipchoq	18921,00	25373,60	45294,60
Chimboy (shahar)	3830,00	8494,95	12324,95
Shabboz	23061,00	42096,00	65157,00
To'rtko'l (shahar)	1959,30	14763,05	16722,35
To'rtko'l (tuman)	126607,50	19084,48	145691,98
Chimboy (tuman)	97247,75	118940,15	216187,90
Kuybishev	34243,00	10914,00	45157,00
Kegeyli	4440,20	2175,00	6615,20
Taxta ko'pir	51150,20	41699,80	92850,00
Xo'jayli (tuman)	29723,00	30602,00	60825,00
Xo'jayli (shahar)	4714,45	22302,49	27016,94

Yuqorida qayd etilgan pensiya va nafaqalarning berilishida bir qancha kamchiliklar ham uchrab turgan. Masalan, bir qator hududlarda nafaqa va pensiya pullarni yetkazib berish qoniqarsiz tashkil etilgan. To'lovlar yetkazib berilmasdan to'g'ridan-to'g'ri idorada to'lashni davom ettirganlar. Bu holat aholi uchun noqulayliklarni yuzaga keltirgan.

Urushdan qaytib kelgan nogironlarini imkon qadar qisqa vaqt ichida sog'lig'iga mos keladigan ish bilan ta'minlash va ularni birinchi navbatda uy-joy bilan ta'minlash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, urush nogironlarini ishga joylashtirish va o'qitish uchun imkoniyatlar yaratildi. Oldingi mutaxassisligi bo'yicha ishlash imkoniyatiga ega bo'lmagan nogironlar uchun mahalliy sanoat korxonalarini mablag'lari hisobidan yangi mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish tashkil etildi. Ularni iloji boricha yangi kasblarga (chilangarlar, tokarlar, kanalizatsiyachilar, poyabzalchilar, hunarmandlar, ustalar, nazoratchilar, buxgalterlar va boshqalar) o'rgatish hamda ularni ishga joylashtirishga e'tibor qaratildi. Yangi kasblarga o'rgatishda, albatta, ularning malakasi va sog'lig'i holatidan kelib chiqqan holda ishlar olib borilgan. Nogironlar uchun quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish tashkil etilgan edi: 1) do'konlar, oshxonalar direktorlari va ularning o'rinbosarlari; 2) sotuvchilar; 3) oshpazlar; 4) omborchilar; 6) buxgalterlar; 7) sabzavotlarni tuzlash va quritish ustalari; 8) duradgorlar; 9) chilangarlar va tokarlar. O'quv kursini tamomlagan nogironlarga davlat texnik ko'rigidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma va ishlab chiqarish o'quv kursini tamomlaganligi to'g'risidagi guvohnoma berilgan[2; 60-b].

Malakaga ega bo'lmagan nogironlarni turli xil kasblarga o'rgatib, ularni ishga joylashtirish, mehnat ishlari bilan shug'ullanishiga keng imkoniyatlar yaratish hukumat oldida turgan asosiy vazifalardan biri edi. 1948-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Qoraqalpog'iston ASSRda 3707 nafar urush nogironlari ro'yxatga olinganda, ulardan 69 kishi 1-guruh, 1358 kishi 2-

guruh, 2291 kishi esa 3-guruh nogiron ekanligi aniqlangan[5; 1-b]. Ularni qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'rgatish va ularning bandligini ta'minlash borasida ham muhim ishlar amalga oshirildi. Halok bo'lgan askarlarning va harbiy xizmatchilarning oilalari doimiy davlat qaramog'ida bo'lib, ularni foydali mehnatga jalb qilish maqsadida muhim ishlar qilindi. 1948-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 1947 yil davomida 994 kishi ish bilan ta'minlangan bo'lsada, ish bilan ta'minlanmagan aholi qatlamlari ham uchrab turgan. Jumladan, 1947-yil hisobida ularning umumiy salmog'i 10 % ni tashkil qilgan. Ularning ko'pchiligi asosan keksa yoshdagi nogironlar va kichik bolalardir. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, ishlab chiqarish korxonalarida ish haqining kamligi bois, urush nogironlari bunday kam haq to'lanadigan korxonalarida ishlamasdan, qo'shimcha ishlarni afzal ko'rganlar, buning natijasida esa bir yilda 212 kishi pensiyadan chiqarilgan[5; 2-b]. Urushdan keyingi iqtisodiyotning orqaga qarab ketishi, ko'plab korxonalarida ish haqining past miqdorda bo'lishi, bu esa ishchilarning moddiy ta'minoti uchun, oila a'zolarini ta'minlash uchun yetmaganligi bois, ular qo'shimcha ishlarni qilishga majbur bo'lishgan.

Bundan tashqari, urush nogironlarini turli korxonalar tomonidan homiylikka olish ishlari ham olib borilgan. 1948 yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 68 nafar 2-guruh nogironlardan 60 kishi homiylik nogironi sifatida ro'yxatga olingan[5; 3-4-b]. Ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari uchun pul, dam olish maskanlariga yuborish, turli xil kiyim-kechaklar, oziq-ovqat mahsulotlari hamda chorva mollar kabi turli yordamlar ko'rsatilgan.

Shuningdek, 1-guruh nogironlariga homiylik qilgan tashkilotlar o'qish va ishga joylashtirishni boshladilar va belgilangan muddatga 4 nafar fuqaro ish bilan ta'minlandi va 1 nafar fuqaro o'qitildi. Aksariyat muassasalar nogironlarga g'amxo'rlik ko'rsatib, katta yordam ko'rsatdilar. Masalan, Sog'liqni saqlash vazirligi homiyligidagi urush nogironi Ikmatov uchun 1947-yilda quyidalar berilgan: 1 ta matras, 3 dona choyshab, 8 dona ustki kiyim, 4 juft poyabzal, 40 kg oziq-ovqat, 2000 rubl naqd pul, 130 rubl dori-darmonlar uchun, 20 metr doka va 11 dona turli xil narsalar (sochiqlar, erkaklar ichki kiyimi). Chimboy shahrida yashovchi Ne'matullayevga esa 90 kg don, 500 rubl pul, 4 kg shakar, 7 kg go'sht, 4 kg sariyog', shuningdek, uning xonadoni ta'mirlab berildi[5; 4-b].

Umuman olganda, urushdan keyingi yillarda harbiy xizmatchilarning oila a'zolari uchun mablag'lar ajratilib, moddiy jihatdan ta'minlanib turilgan. Qoraqalpog'iston ASSR Ijtimoiy ta'minot vaziri Seitovanning ma'lumot berishicha, 1947-yil uchun pensiyalar, nafaqalar to'lash hamda Ijtimoiy ta'minot vazirligi tizimidagi maktab-internatlarni saqlash uchun umumiy miqdorda 23395663 rubl sarflangan. Shu jumladan, Ittifoq byudjetiga muvofiq: xodimlarning oilalariga beriladigan nafaqalar – 9047865 rubl, halok bo'lgan askarlarning oilalari uchun pensiyalar – 5738351 rubl, urush qatnashchilarning pensiyalari uchun – 5410773 rubl miqdorda mablag' ajratilgan. O'zbekiston SSR byudjetiga ko'ra, nogironlik nafaqasi – 1776281 rubl, Qoraqalpog'iston ASSR byudjetiga ko'ra esa – 1422443 rubl mablag'ni tashkil qilgan[5; 12-b].

Xulosa qilib aytganda, urushdan keyingi yillarda ham ijtimoiy ta'minot sohasida e'tibor kuchayib, urush qatnashchilarning oila a'zolarini nafaqa bilan ta'minlash, ularga qonunda ko'rsatilgan yengilliklar va imtiyozlar berish, ularning moddiy-maishiy ahvollarini yaxshilash borasida har doim g'amxo'rlik qilingan. Muhtoj oilalar uchun sanoat mollari ajratilib, uylarini remont qilish, o'tin-ko'mir berish va boshqa yordamlar ham ko'rsatilgan. Hattoki qishloq joylarida kolxozchilarning o'zaro jamoat yordami kassalari harbiy xizmatchilarning oila

a'zolari, shuningdek, moddiy jihatdan qiynalib qolgan oilalarga turli xil buyumlar bilan bir qatorda, pul mablag'lar ham ajratilgan.

Shuningdek, sovet hokimiyatining Qoraqalpog'iston ASSRda amalga oshirgan ijtimoiy ta'minot siyosatida bir qatorda muammo va kamchiliklar mavjudligini ham ta'kidlash zarur. Jumladan, harbiy xizmatchi oilalariga, urush nogironlariga pensiya va nafaqalarning berilishida qator hududlarda pullarni yetkazib berish qoniqarsiz tashkil etilib, to'lovlar yetkazib berilmasdan to'g'ridan-to'g'ri idoradan to'lashni davom ettirganlar. Bu o'z navbatida pensiya oluvchilarga noqulayliklar tug'dirgan. Bundan tashqari, ishlab chiqarish korxonalarida ish haqining kamligi bois, urush nogironlari bunday kam haq to'lanadigan korxonalarida ishlamasdan, qo'shimcha ishlarni afzal ko'rganlar, buning natijasida esa bir yilda 212 kishi pensiyadan chiqarilgan.

Адабиётлар/Литература/References:

1. "Qizil O'zbekiston", 1943-yil 8-oktyabr.
2. Возвращение к трудовой деятельности инвалидов Отечественной войны: Сб. постановлений и инструкций / Науч. ин-т лечеб.-труд. экспертизы отд. соц. обеспечения исполкома Ленингр. гор. совета депутатов трудящихся; Сост. Н.М. Ободан. — Л.: Лениздат, 1943.
3. "Xorazm haqiqati". 1946-yil 3-aprel.
4. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachilik davrida. — Toshkent: "Sharq", 2000.
5. O'zR MA, R-96-fond, 616-yig'ma jild.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).